

ZAMONAVIY JAMIYATDA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA YOSHLARNING ROLI

Termiz davlat universiteti

Yuridik fakulteti I bosqich 125-guruh talabasi

Jalilova Sabrina Hamza qizi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy jamiyat sharoitida huquqiy madaniyat tushunchasining mazmuni, uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini hamda yoshlarning huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi roli ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etiladi. Maqolada yoshlarning huquqiy ongini rivojlantirish, huquqqa hurmat ruhini kuchaytirish va huquqbuzarliklarning oldini olishda ta'lim muassasalari, oila hamda davlat institutlarining o'zaro hamkorligi muhim omil sifatida asoslab beriladi. Shuningdek, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar va ularning amaliy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Huquqiy madaniyat, huquqiy ong, yoshlar, jamiyat, huquqiy tarbiya, fuqarolik mas'uliyati, ta'lim, oila, jamoatchilik.

Abstract: This scientific article analyzes the concept of legal culture in the context of modern society, its role in societal development, and the contribution of youth to the formation of legal culture from a theoretical and scientific perspective. The paper substantiates the importance of educational institutions, family, and state institutions in developing youths' legal awareness, fostering respect for the law, and preventing offenses. In addition, modern approaches aimed at enhancing legal culture and their practical significance are examined.

Keywords: *Legal culture, legal awareness, youth, society, legal education, civic responsibility, education, family, community.*

Kirish. Bugungi globallashuv va ijtimoiy munosabatlar jadallashib borayotgan sharoitda huquqiy madaniyat jamiyat barqarorligi va demokratik rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Huquqiy madaniyat nafaqat qonunlarni bilish, balki ularga ongli ravishda amal qilish, huquq va majburiyatlarga mas'uliyat bilan yondashish kabi jihatlarni ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, yoshlar huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayonida asosiy ijtimoiy qatlam sifatida namoyon bo'ladi, chunki jamiyatning kelajakdagi taraqqiyoti bevosita ularning huquqiy qarashlari va fuqarolik pozitsiyasiga bog'liq.

Mazkur maqolada yoshlarning huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi o'rni, ularning huquqiy ongini rivojlantirish mexanizmlari va zamonaviy jamiyatda bu jarayonning ahamiyati yoritib beriladi.

Asosiy qism: Huquqiy madaniyat tushunchasi va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati:

Huquqiy madaniyat — bu shaxs va jamiyatning huquqqa bo'lgan munosabati, huquqiy bilimlar darajasi, qonunlarga rioya etish amaliyoti hamda huquqiy qadriyatlarning umumiy majmuasidir. Huquqiy madaniyat yuksak bo'lgan jamiyatda qonun ustuvorligi ta'minlanadi, huquqbuzarliklar kamayadi va fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchi mustahkamlanadi.

Zamonaviy jamiyatda huquqiy madaniyat ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki huquqiy madaniyatning past darajasi huquqiy nigilizm, qonunlarga befarqlik va mas'uliyatsizlik kabi salbiy holatlarning kuchayishiga olib keladi. Shu bois huquqiy madaniyatni shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy

madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoni.

Bu farmon:

- huquqiy ong va madaniyatni jamiyat darajasida yuksaltirishni maqsad qilgan;
- aholi, xususan yoshlarning qonunlarga hurmatini shakllantirishni nazarda tutadi;
- davlat organlari, ta’lim muassasalari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda OAV orqali huquqiy targ‘ibotni kuchaytirishni belgilaydi.

Shu farmon bo‘yicha:

“Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish — demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!” kabi g‘oya aholining huquqiy fikrini mustahkamlashga urg‘u beriladi.

- Yoshlarning huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi o‘rni:

Yoshlar jamiyatning eng faol va o‘ziga xos qatlami bo‘lib, ijtimoiy o‘zgarishlarga tez moslashish xususiyatiga ega. Aynan shu sababli ularning huquqiy madaniyati jamiyatning umumiy huquqiy holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Yoshlar orasida huquqiy ongning yuksalishi huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolik faolligini oshirish va jamiyatda adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yoshlarning huquqiy madaniyati quyidagi omillar orqali shakllanadi:

- huquqiy ta’lim va tarbiya tizimi;
- oiladagi huquqiy muhit;
- ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri;
- davlat va jamoat tashkilotlarining huquqiy targ‘ibot faoliyati.

Ushbu omillarning uyg‘unlashuvi yoshlarning huquqiy bilimlarini mustahkamlabgina qolmay, ularda qonunlarga hurmat va mas’uliyat hissini shakllantiradi.

- Ta’lim tizimining huquqiy madaniyatni yuksaltirishdagi roli:

Ta’lim muassasalari yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda yetakchi institutlardan biri hisoblanadi. Maktab va oliy ta’lim tizimida huquqiy fanlarning

o'qitilishi, huquqiy mavzularda qiziqarli mashg'ulotlar va amaliy treninglarning tashkil etilishi yoshlarning huquqiy bilimlarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, talabalarining huquqiy faolligini oshirish, ularni jamoat ishlariga jalb etish ham huquqiy madaniyatni yuksaltirishning samarali vositalaridan biridir. Ayniqsa, huquqiy muammolar yuzasidan munozaralar, davra suhbatlari va loyihaviy faoliyat yoshlarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

--- Oila institutining huquqiy madaniyat shakllanishidagi ta'siri:

Huquqiy madaniyatni shakllantirishda oila birlamchi va eng muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Chunki insonning dastlabki huquqiy tasavvurlari, tartib-intizom, mas'uliyat hamda jamiyat qoidalariga bo'lgan munosabati aynan oilada shakllanadi. Ota-onalarning huquqqa hurmat ruhida yashashi, qonunlarga rioya etishi va farzand tarbiyasida adolat tamoyillariga tayanishi yoshlarning huquqiy ongini rivojlantirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Agar oilada qonunlarga befarqlik, huquqiy savodsizlik yoki huquqbuzarlikka moyillik mavjud bo'lsa, yosh avlod ongida huquqqa nisbatan salbiy munosabat paydo bo'lishi mumkin. Shu bois huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayonida ota-onalar uchun huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil etish, oilaviy huquqiy maslahat tizimini kuchaytirish hamda oilada huquqiy tarbiyani mustahkamlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, oila yoshlarning fuqarolik mas'uliyatini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Chunki yoshlar jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga kirishishda oiladan olgan tarbiya va qadriyatlar asosida harakat qiladi. Natijada huquqiy madaniyat faqat ta'lim muassasasi orqali emas, balki oila orqali ham uzviy shakllanib boradi.

--- Davlat institutlari va jamoatchilik tashkilotlarining hamkorligi:

Huquqiy madaniyatni yuksaltirishda davlat organlari va jamoatchilik tashkilotlarining hamkorligi alohida o'rin tutadi. Davlat tomonidan qabul qilinayotgan huquqiy islohotlar, qonunlarning takomillashuvi va ularni amaliyotga tatbiq etish jarayonlari yoshlar huquqiy ongiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa,

huquqbuzarliklar profilaktikasi, yoshlar orasida jinoyatchilikning oldini olish hamda huquqiy targ'ibot tadbirlarini kuchaytirish orqali huquqiy madaniyat rivojlantiriladi.

Jamoatchilik tashkilotlari, yoshlar ittifoqlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari huquqiy targ'ibotning samarali subyektlaridan biri sifatida faoliyat yuritadi. Ular tomonidan huquqiy seminarlar, ochiq muloqotlar, treninglar, huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan loyihalar tashkil etilishi yoshlarning huquqiy bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish uchun "huquqiy maslahat markazlari", "yoshlar uchun huquqiy platformalar", "online huquqiy konsultatsiyalar" kabi zamonaviy mexanizmlarni yo'lga qo'yish bugungi kunda dolzarb masalaga aylangan. Bu kabi tizimlar yoshlarning huquqiy muammolariga tezkor va samarali yechim topishga yordam beradi.

--- Huquqiy ong va fuqarolik faolligi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik:

Yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish jarayonida huquqiy ong va fuqarolik faolligi o'rtasidagi bog'liqlik muhim omil hisoblanadi. Fuqarolik faolligi — bu shaxsning jamiyat hayotidagi ishtiroki, o'z huquq va majburiyatlarini anglab yetishi hamda davlat va jamiyat manfaatlari yo'lida faol harakat qilishidir.

Huquqiy ong yuksak bo'lgan yoshlar o'z huquqlarini himoya qilish, qonuniy yo'l bilan muammolarni hal etish va davlat organlari bilan samarali muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa jamiyatda qonun ustuvorligini mustahkamlashga, adolat va tartibning barqaror bo'lishiga xizmat qiladi.

Ayniqsa, demokratik jamiyat sharoitida yoshlarning saylovlarda faol ishtirok etishi, jamoatchilik nazoratida qatnashishi, ijtimoiy loyihalar va tashabbuslarni ilgari surishi huquqiy madaniyatning real amaliy ko'rinishidir. Shu sababli yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish jarayonida ularni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga jalb etish va ularning tashabbuskorligini rag'batlantirish zarur.

---Huquqiy madaniyatni oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining roli:

Bugungi kunda huquqiy madaniyatni shakllantirishda raqamli texnologiyalar va internet resurslari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlar asosan axborotni ijtimoiy

tarmoqlar, internet nashrlari hamda turli platformalar orqali oladi. Shu bois huquqiy axborotni sodda, tushunarli va ommabop shaklda taqdim etish yoshlarning huquqiy bilimini oshirishning samarali yo'li hisoblanadi. Raqamli platformalar orqali qonunchilikdagi yangiliklarni tezkor yetkazish, huquqiy masalalar bo'yicha online kurslar va treninglarni tashkil etish, shuningdek, yoshlar uchun huquqiy viktorinalar va interaktiv dasturlar yaratish ularning huquqiy savodxonligini mustahkamlashga yordam beradi.

Biroq ijtimoiy tarmoqlarda huquqiy mavzularda noto'g'ri talqinlar, yolg'on ma'lumotlar yoki manipulyativ fikrlarning tarqalishi yoshlarning huquqiy ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun yoshlar orasida media savodxonlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish huquqiy madaniyatni oshirishning ajralmas qismi bo'lib qolmoqda.

--- Huquqiy tarbiya jarayonida amaliy yondashuvlarning ustuvorligi:

Huquqiy madaniyatni shakllantirishda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy yondashuvlar ham muhim ahamiyatga ega. Chunki yoshlar faqat qonunlarni yod olish orqali emas, balki real hayotiy vaziyatlarda huquqiy bilimlarini qo'llash orqali huquqiy ongini chuqur anglaydi.

Shu sababli oliy va o'rta ta'lim muassasalarida "moot court" (sud jarayonini modellashtirish), huquqiy klinikalar, amaliy seminarlar, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ekskursiyalar, advokat va prokurorlar bilan uchrashuvlar kabi shakllar yoshlarning huquqiy dunyoqarashini rivojlantiradi.

Bu kabi amaliy mashg'ulotlar yoshlarning huquqiy masalalarni mustaqil tahlil qilish, dalillar asosida fikr bildirish hamda huquqiy muammolarga qonuniy yechim topish ko'nikmalarini shakllantiradi. Natijada yoshlar huquqiy madaniyatni faqat nazariy tushuncha sifatida emas, balki hayotiy ehtiyoj sifatida qabul qiladi.

--- Zamonaviy yondashuvlar va muammolar:

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar rivoji yoshlarning huquqiy madaniyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot olish imkoniyati kengaygan bo'lsa-da, noto'g'ri yoki ishonchsiz ma'lumotlarning tarqalishi huquqiy

ongga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois yoshlar orasida tanqidiy fikrlash va huquqiy axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, huquqiy madaniyatni shakllantirishda formal yondashuv, ya'ni faqat nazariy bilimlar bilan cheklanish ham muammolardan biri hisoblanadi. Amaliyot bilan uyg'unlashmagan huquqiy ta'lim kutilgan natijani bermaydi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, zamonaviy jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayonida yoshlarning tutgan o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Yoshlar huquqiy bilimga ega, qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalangan va fuqarolik mas'uliyatini anglagan sharoitda jamiyatda qonun ustuvorligi mustahkamlanadi. Huquqiy madaniyatli yoshlar nafaqat o'z huquq va erkinliklarini himoya qila oladi, balki jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etadi.

Mazkur tadqiqot shuni ko'rsatadiki, huquqiy madaniyatni yuksaltirish faqat davlat zimmasidagi vazifa bo'lib qolmasdan, ta'lim muassasalari, oilalar va fuqarolik jamiyati institutlarining uzviy hamkorligini talab etadi. Ayniqsa, zamonaviy axborot texnologiyalari sharoitida yoshlar bilan ishlashda innovatsion va interaktiv yondashuvlarni qo'llash muhimdir.

Ilmiy yangilik: Maqolada yoshlarning huquqiy madaniyatni shakllantirishdagi o'rni ijtimoiy-faollik va fuqarolik mas'uliyati bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilinib, huquqiy tarbiyaning zamonaviy mexanizmlarini qo'llash zarurligi asoslab berildi.

Amaliy ahamiyati: Mazkur ilmiy maqola xulosalari oliy ta'lim muassasalarida huquqiy fanlarni o'qitishda, yoshlar bilan ishlashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda hamda huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha profilaktik dasturlarni ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni.

3. O‘zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida»gi Qonuni.
4. Islomov Z.M. Huquqiy madaniyat asoslari. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti.
5. Saidov A.X. Inson huquqlari va huquqiy davlat. – Toshkent.
6. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat masalalariga oid ilmiy maqolalar to‘plami.
7. United Nations. Universal Declaration of Human Rights (UDHR). – 1948.
8. UNESCO. Education for Citizenship and Human Rights: Global Framework and Recommendations.
9. Council of Europe. Education for Democratic Citizenship and Human Rights Education Charter. – Strasbourg.
10. World Justice Project. Rule of Law Index Report. – Annual Report.
11. OSCE. Rule of Law and Youth Participation in Democratic Governance. (analytical materials).
12. Habermas J. The Theory of Communicative Action. – Boston: Beacon Press.
13. Almond G., Verba S. The Civic Culture: Political Attitudes and Democracy in Five Nations. – Princeton University Press.